



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR

AZIZ POSBONLAR KUNI

*El tinchligin aziz jonida tutgan,
Vatan sha'nin nomus, orida tutgan,
Sadoqatni toza qonida tutgan,
Ona yurtida jasur posbonlar kuni.*

*Oq tonglarim asraguvchi qalqoni,
Hur ostonam, sarhadlarim qo'rg'oni,
Qora kuchlar qo'li yetmas armoni,
Alpomishdek botir o'g'lonlar kuni.*

*Bu zaminning xalqi jahongir o'tgan,
Lashkarlari adolat tug'in tutgan,
Harb ilmida shuhrati, dong'i ketgan,
Temurbekdek dong'i dostonlar kuni.*

*Erk bag'rida o'z xalqiga zobit u,
Yalovbardor ajdodlarga sobit u,
Vatan uchun qasamyod etgan mangu,
Vatanparvar, mardi maydonlar kuni.*

*Duolarga ochiq qo'llar siz bilan,
Kelajagi yorqin yo'llar siz bilan,
Qutlug' bo'lsin, muborak kun, ulug' sha'n,
Yurtga fido, aziz insonlar kuni!*

Zulfiya YUNUSOVA



Vatan

himoyachilari kuni



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 16-YANVAR
№3 (3169)





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 34 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

**Hurmatli askar va serjantlar,
ofitser va generallar!**

**Muhtaram Qurolli
Kuchlarimiz faxriylari!**

Qadrli vatandoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda o'z hayotini Vatan himoyasidek g'oyat sharaflil va mas'uliyatli ishga bag'ishlagan, harbiy qasamyodiga sodiq qolib, mamlakatimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligini ko'z qorachig'idek asrab kelayotgan ona yurt posbonlariga yana bir bor yuksak hurmat va ehtirom bildiramiz.

Ayni vaqtda Vatan oldidagi yig'itlik burchini bajarish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan qahramon o'g'lonlarimizning xotirasiga chuqur hurmat bajo keltiramiz.

Bugungi kunda xalqimiz Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ulkan yutuq va marralarni qo'lga kiritmoqda. Hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi tarixiy o'zgarishlarda shavkatli Qurolli Kuchlarimizning, sizlarning ham munosib hissangiz bor, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Biz sizlarni buyuk ajdodlarimiz an'alarining shonli davomchilari deb bilamiz va sizlardek Vatanga fidoyi, dushmanga shafqatsiz, jangovar saflarda doimo hushyor va kurashga shay bo'lgan azm-u

shijoat sohiblari bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, el-yurtimizga shunday dovyurak, botir va bahodir farzandlarni tarbiyalab bergan otalarga, harbiy xizmat davomida barcha quvunch va tashvishlarni ular bilan baham ko'rib kelayotgan oila a'zolariga o'zimning samimiy minnatdorligimni izhor etaman.

Qadrli do'stlar!

Keyingi yillarda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ortga qaytmas islohotlarimizning mustahkam kafolatlaridan biriga aylanib borayotgan Qurolli Kuchlarimizning harbiy qudratini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshiryapmiz. Jumladan, boshqaruv va ta'minot tizimi takomillashtirilib, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida modernizatsiya qilinmoqda, qo'shinlarimizning jangovar saflari yangicha ta'lim va tarbiya olgan malakali ofitser va serjantlar bilan to'ldirilmoqda.

Shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasi, harbiy xizmatchilarning kasbiy, intellektual va ma'naviy salohiyati izchil yuksaltirib borilmoqda. Qurolli Kuchlarimiz zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda.

Yoshlar o'rtasida harbiy xizmatga qiziqishni oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalq bilan armiya o'rtasidagi mustahkam birlik va jipslikni yanada kuchaytirishga qaratilgan samarali ishlarimiz qat'iy davom ettirilmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning siyosiy va harbiy xaritasida

qanday shiddatli o'zgarishlar yuz berayotganini barchamiz ko'rib, anglab turibmiz.

Turli mintaqalarda geosiyosiy vaziyat tobora murakkablashib, ziddiyat va qonli to'qnashuvlar kuchaymoqda. Zamonaviy texnologiyalar, yangi avlod qurol-yarog'lari paydo bo'lmoqda, jangovar harakatlar olib borishning strategiya va taktikasi yanada takomillashmoqda.

Mavjud vaziyatni hisobga olgan holda biz kelgusida jang va boshqaruv usullarini zamon talablari asosida yangilaymiz, yuqori malakali harbiy kadrlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratamiz.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, ularning qalbida vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Chunki har qanday kurashning taqdirini shaxsiy tarkibning bilim va malakasi, iroda va qat'iyati, o'ziga bo'lgan ishonchi, mardona fazilatlarini hal qiladi.

Milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika, jumladan sun'iy intellekt asosida robotlashtirilgan majmualar bilan ta'minlash, qo'shinlarni boshqarish hamda qaror qabul qilish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishga doir

ishlarning samarasini oshirib, ularning turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan ishlarni kuchaytiramiz. Bu borada davlat va fuqarolik institutlari hamda keng jamoatchilikning faol ishtirok etishiga alohida ahamiyat qaratamiz.

Har bir harbiy xizmatchi xalq bilan armiya – bir tan-u bir jon ekanini, uning ortida 38 millionlik xalq tog'dek tayanch bo'lib turganini doimo his etishi, shundan cheksiz kuch, ruh va madad olishi kerak.

G'ayrat-shijoatda tengsiz bo'lgan harbiylarimiz yovlar oldida hech qachon bosh egmagan qo'rqmas va o'tyurak ajdodlarimizning o'lmas merosini o'rganib, ulardan ibrat va saboq olib, Vatan oldidagi muqaddas burchini bundan buyon ham sharafla ado etadilar, deb ishonaman.

Aziz Vatan himoyachilari!

Mana shu hayajonli damlarda har biringizni bugungi bayram bilan yana bir bor chin dildan qutlab, sizlarga va oila a'zolaringizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasidagi oliyjanob faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Jonajon Vatanimiz himoyasi yo'lida hech qachon tolmang, yutuq va zafar sizlarga doimo yor bo'lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti,
Qurolli Kuchlar
Oliy Bosh Qo'mondoni**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida

Mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yuksaltirish, davlat xavfsizligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlash, professional milliy armiyani shakllantirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirishdagi katta xizmatlari, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ibratli faoliyati, sharafliligi va muqaddas burchini bajarishda mardlik va jasorat ko'rsatgani, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qo'shgan munosib hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

“MARDLIK” ORDENI BILAN

Ahmedov Sherzod Hurmatjon o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi
Vapayev Sardarbek Rajabbayevich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandiri
Madiyev Hakim Abdumurat o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi
Xudayberganov Xurshid Xamdamovich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi

“DO'STLIK” ORDENI BILAN

Sayfutdinova Irina Vladimirovna – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devoni xizmat katta ofitseri

“JASORAT” MEDALI BILAN

Abdullayev Alishoh Ilhom o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi
Amonov Nodirjon Ibodilloevich – Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Buxoro shahri favqulodda

vaziyatlar bo'limi katta yo'riqchi-qutqaruvchisi

Ibragimov Azimjon Siddiq o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

Kim Aleksandra Vladimirovna – Toshkent shahri Ichki ishlar bosh boshqarmasi batalyoni guruh katta mutaxassisi

Lapasov Muslumbek Sayfulla o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Muminov Vaxobjon Abduvaliyevich (marhum) – Namangan viloyati ichki ishlar boshqarmasi yo'l-patrul xizmati katta inspektori

Muhammadov Jasurjon Rasul o'g'li (marhum) – Navoiy viloyati ichki ishlar boshqarmasi yo'l-patrul xizmati inspektori

Suleymanov Ziyodullo Murodillo o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

Uzaqov Avazbek Tilavoldiyevich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi

Xusainov Inom Taxirovich – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi boshqarma boshlig'i

Shomuratov Mansur Buriyevich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaz katta o'qituvchisi

Ergashev Amirxon Baxriddinovich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandirining o'rinbosari

Qo'shanov Mansur Burxon o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

“SODIQ XIZMATLARI UCHUN” MEDALI BILAN

Abdimov minov Abror Isroilovich – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining Surxondaryo viloyati bo'yicha boshqarmasi “Sariosiyo” temiryo'l

chegara bojxona posti guruh inspektori

Aliyev Jamshid Valijonovich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari harbiy qism qorovul boshlig'i

Badalboyev Feruz Yusufovich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi boshqarma boshlig'i

Boboyev Mirshod Murotovich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi markaz boshlig'i

Buvayev Turg'unboy Madaminjonovich – O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi sud inspeksiyasi rahbari

Jo'rayev Maqsud Tursunboyevich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh katta yo'riqchisi

Isakov Sobirjon Qodirovich – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Karimov Abdurauf Bobur o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vzvod komandiri

Kasimov Rustam Gulyamovich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi direktori

Mamadaliyeva Sanobar Tursunovna – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi
Niyozov Avaz Aminovich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi

Parpiyev Akmal Norko'ziyevich – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqarma boshlig'i

Shukrullayev Murodjon Ilyos o'g'li – Toshkent viloyati Toshkent tumani prokurorining o'rinbosari

Tursunova Gulchehraxon Raximjonovna – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Turg'anboyev Xamidulla Anorboyevich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi

Egamberdiyev Xasan Qurolovich – Sirdaryo viloyati

favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Boyovut tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi smena boshlig'i
Ergashev Oybek G'ofirjon o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi departamenti bo'lim boshlig'i

“SHUHRAT” MEDALI BILAN

Abdusattarov Baxtiyor Abdusamadovich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Toshkent shahri Uchtepa tumani bo'limi davlat ijrochisi

Adilxadjayev Anvarxuja Abdullayevich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Farg'ona viloyati boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Aytmuratov Ruslan Anvar uli – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Jaksimuratov Mirat Maratovich – Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri ichki ishlar bo'limi bo'linma boshlig'i

Mirtursunov Xurshid Mirkadirovich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism vzvod komandiri

Ostonov Mirzoxid Yoriyevich – Qashqadaryo viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari – shtab boshlig'i

Sultonov Asliddin Muxtarovich – Samarqand viloyati Pstdarg'om tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

Xalenov Isaxon Marufjanovich – Toshkent shahri favqulodda vaziyatlar boshqarmasi yong'in-qutqaruv otryadi qutqaruvchi-yo'riqchisi

Eliyev Joxongir Xudoyberdiyevich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

Sh. MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

MAMLAKATIMIZ HARBIY XAVFSIZLIGI VA MUDOF AASINI YANADA MUSTAHKAMLASHNING USTUVOR VAZIFALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi, Vazirlar Mahkamasi a'zolari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar rahbarlari, harbiy okruglar qo'mondonlari, harbiy-ma'muriy sektorlar rahbarlari, boshqa idoralar va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

O'tgan yillarda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Milliy armiyamiz zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik darajasi izchil oshirib borilmoqda, mudofaa sanoatining salohiyati mustahkamlanmoqda.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yangi taktik usullar joriy etilib, mashg'ulotlar soni va shiddati 1,5 barobarga oshirildi, uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalari va mutaxassislar tayyorlash markazlari tashkil etildi.

Armiyani raqamlashtirish bo'yicha boshlangan ishlar natijasida axborot xavfsizligi, boshqaruv va ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan harbiy ta'lim tizimi tubdan yangilandi, malakali professor-o'qituvchi va instruktorlardan iborat Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi.

Ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or raqamli texnologiyalari, jumladan sun'iy intellektga asoslangan va zamonaviy baholash tizimlari joriy etilgani harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yig'ilishda mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Turli mintaqaviy mojarolar kengayib, qurollanish poygasi avj olayotgani, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, xalqaro huquq normalari va xalqaro diplomatiya zaiflashib borayotgani qayd etildi.

– *Bir narsani tushunib olish zarur. Zamonaviy urush tabiati tubdan o'zgardi. Endi qaysi davlat faqat tank, samolyot yoki askarlar soniga tayanib g'alaba qozonaman desa, qattiq adashadi. Hozirgi janglar sun'iy intellekt, raqamli boshqaruv, uzoq masofaga yuqori aniqlikda zarba beruvchi vositalar, kiber va robot texnologiyalar, siyosiy-iqtisodiy bosim asosida olib borilmoqda*, – dedi davlatimiz rahbari.

Shu bois tinchlik va xotirjamlik eng qimmat boylikka aylanayotganini bir daqiqa ham unutmash lozimligi ta'kidlandi. Bu boylikni asrab-avaylash uchun esa har bir soha va tarmoq xavf-xatarlarga oldindan javob qaytarish bo'yicha "proaktiv ish rejimi"ga o'tishi shartligi ko'rsatib o'tildi.

Oliy Bosh Qo'mondon kelgusi istiqbolga mo'ljallangan eng muhim vazifalarni belgilab berdi.

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga ustuvor e'tibor qaratiladi.

– *Shuni unutmash kerakki, harbiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish armiyaning yangi qiyofasini shakllantirishning asosiy shartidir*, – dedi Prezident.

Muddatli harbiy xizmat – faqat jismoniy va harbiy tayyorgarlik emas, balki yoshlarimiz jamiyatda mustahkam o'rnini topishi uchun ularni mehnat bozoriga va mustaqil kasbga tayyorlash bosqichi sifatida tashkil etilishi zarurligi qayd etildi.

Jumladan, armiyada yoshlar kamida bitta kasb egasi bo'lib chiqishi bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratiladi. Harbiy qismlardagi asosiy yo'nalish va mutaxassisliklardan kelib chiqib, askarlarni kasbga tayyorlash bo'yicha 3-6 oylik dasturlar ishlab chiqiladi. Dasturni yakunlagan askarlar malaka imtihonidan o'tkazilib, ularga kasb sertifikatini beriladi.

Har yili 5 ming askar saralab olinib, "Bir million dasturchi" va "Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" dasturlari doirasida o'qitiladi.

Askarlarga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida harbiy qismning o'zida oliygohga o'qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, talabalikka qabul qilingan askarlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o'qishini boshlaydi.

Shu bilan birga, armiyadan qaytib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo'lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikatini olish xarajatlari qoplab beriladi. Agar ular oliygohlarga kontraktga kirsa, foizsiz ta'lim krediti ajratiladi.

Bundan tashqari, armiyadan qaytgan yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha ham alohida imtiyozlar beriladi. Jumladan, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi yoshlarning kredit xarajatini 6 foizi davlat tomonidan qoplanadi, davlat tashkilotlariga ishga kirmoqchi bo'lgan yoshlar uchun Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o'tkaziladigan test ballariga 10 foizlik imtiyoz berish amaliyoti joriy qilinadi. Xususiyl sektorda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan yoshlarga kasbni egallash va sertifikat olish xarajatlari to'lab beriladi.

– *Bir so'z bilan aytganda, "muddatli harbiy xizmatni o'tash – yoshlar uchun muvaffaqiyat yo'li"ga aylanishi kerak*, – dedi Prezidentimiz.

Muhandislik-texnika, kiberxavfsizlik va axborot xurujlariga qarshi kurashish sohalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash eng muhim masala ekani ta'kidlandi. Shu bois muhandislik-texnik yo'nalishdagi harbiy-ilmiy bazani mustahkamlash, joylarda harbiy texnoparklar tashkil etish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yanada mustahkamlash bilan birga, ularning ma'naviy olamini ham muntazam boyitib borishni zamonning o'zi talab etmoqda.

Bunda kitobxonlik muhim o'rin tutadi. Shu bois joriy yilda barcha harbiy qism va muassasalar jami 1 million nusxadagi badiiy adabiyot bilan ta'minlanadi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiyga yo'naltirilgan maktab-litsey o'quvchilari, muddatli harbiy xizmatchilar, kursantlar, serjant va ofitserlar o'rtasida Oliy Bosh Qo'mondon sovrini uchun kitobxonlik tanlovi yo'lga qo'yiladi. Okrug, qo'mondonlik, vazirlik, Oliy Bosh Qo'mondon tanlovlarida g'olib va sovrindor bo'lgan askarlarning muddatli harbiy xizmati bir oyga qisqartirib beriladi.

Har yili harbiy xizmatchilar o'rtasida ko'pkurash, qo'ljangi, og'ir atletika kabi sportning 10 dan ortiq an'anaviy turi bo'yicha musobaqalar o'tkazilmoqda. Endi joriy yildan boshlab kibersport, dron va robot texnologiyalari kabi zamonaviy sport turlari bo'yicha uch bosqichli musobaqalar tashkil etiladi.

– *Mintaqaviy va global vaziyatni doimiy tahlil qilib borish, milliy armiyamizning salohiyatini mustahkamlash – bugungi kun talabi. O'zbekiston armiyasi xalq himoyasiga doimo tayyor turishi, buning uchun tezkor, yuqori texnologiyali, yangi jang sharoitlariga mos bo'lishi kerak*, – dedi Prezident.

Shu sababli qo'shinlarni sun'iy intellekt asosidagi robotlashgan majmualar va uchuvchisiz tizimlar, yengil harbiy texnika, zamonaviy qurol-aslaha, razvedka vositalari bilan jihozlashga alohida e'tibor qaratish kerakligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz mudofaa sanoatini yanada rivojlantirish, soha korxonalarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo'lishi kerakligini qayd etdi.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish sharoitida kiberxavfsizlikni ta'minlash va milliy raqamli infratuzilmaning barqarorligini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mutasaddilarga shaxsga doir ma'lumotlar va raqamli tizimlar himoyasini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash topshirildi.

– *Harbiy xizmatchilar mehnatini qadrlash, ularning oila a'zolari va harbiy*

pensionerlarni ijtimoiy himoya qilish doimo diqqat-e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur, – dedi Prezidentimiz va bu borada katta yangiliklarni e'lon qildi.

Xususan, 1-apreldan boshlab, Mudofaa vazirligi ofitserlariga ko'p yillik xizmati uchun ustama miqdori 2 karra oshiriladi. Kontrakt asosida xizmat qilayotgan oddiy askar va serjantlarning oylik maoshi 10 foizga ko'paytiriladi.

Hududiy mudofaa ishlari boshqarmasi va bo'limlarining harbiy bo'lmagan xizmatchilarining oyligi bu yil 20 foizga, kelasi yili yana 50 foizga oshiriladi.

Qurolli Kuchlar safida 30 yildan ortiq xizmat qilgan harbiylar uchun pensiya hisoblashda inobatga olinadigan oylik miqdori 75 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar uchun uy-joy qurilishi kengaytiriladi.

Mas'ullarga harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minotini belgilaydigan qonun loyihasini ishlab chiqib, parlamentga kiritish topshirildi.

Zamonaviy xavf va tahdidlarning mazmuni ham, ko'lami ham kundan kunga o'zgarib borayotgani, mudofaa va xavfsizlik sohasi oldiga katta vazifalar qo'yilayotganini inobatga olib, davlatimiz rahbari sakkiz yil oldin qabul qilingan Mudofaa doktrinasi hamda 1997-yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish vaqti kelganini ko'rsatib o'tdi.

Yangi Mudofaa doktrinasi mamlakatimizni hech qaysi harbiy blokka qo'shilmaslik maqomini saqlab qolishini, ko'p tomonlama diplomatiyaga tayanishda davom etishini, yuqori texnologiyalarga asoslangan strategiya, harbiy mustaqillik va mintaqaviy barqarorlik yo'nalishida rivojlanishini ta'minlashi lozimligi ta'kidlandi.

– *Umuman, yangi doktrina armiyani texnologik yangilash va ilg'or harbiy yechimlarni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak*, – dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari yig'ilish yakunida Qurolli Kuchlarimizning jasur askar va serjantlari, ofitser va generallari, faxriylari, ularning oila a'zolari va yaqinlarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy tabrikladi.

– *Sizlarning jasoratingiz, qasamyodga sadoqatingiz, el-yurt himoyasi yo'lidagi fidoyiligingiz bilan butun xalqimiz faxrlanadi. Go'zal yurtimizda tinchlik-osoyishtalik va hamjihatlik doimo hukm sursin, jonajon Vatanimiz yanada mustahkam va barqaror bo'lsin!* – dedi davlatimiz rahbari.

Yig'ilishda mudofaa vaziri, harbiy okrug qo'mondonlari va boshqa mas'ullarning hisobot hamda takliflari eshitildi.

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV CHIRCHIQ AVIATSIYA TA'MIRLASH ZAVODIGA TASHRIF BUYURDI

Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari korxonada amalga oshirilgan keng ko'lamli modernizatsiya natijalari hamda uning yangi yuqori texnologik bo'linmalari faoliyati bilan tanishdi.

Zavod negizida MDH va mintaqamizda yagona bo'lgan "Airbus" vertolyotlariga texnik xizmat ko'rsatish markazi ishga tushirilgan.

Markaz Fransiyaning "Airbus" kompaniyasi tomonidan rasmiy sertifikatidan o'tkazilgan bo'lib, ishlab chiqarish yuqori saviyada tashkil etilgani, xalqaro standartlar va ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangan. Bu yerda G'arb aviatexnikasining zamonaviy modellari, shu jumladan H-125, H-215 va H-130 rusumli vertolyotlar uchun servis va ta'mirlash

ishlarining to'liq zanjiri yo'lga qo'yilgan.

Markaz O'zbekistonni "Airbus" vertolyotlariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ekspluatatsiya qilish bo'yicha muhim mintaqaviy xabga aylantirish imkonini beradi.

Mamlakatimiz yetakchisi markaz imkoniyatlari bilan tanishdi va mutaxassislar bilan muloqot qildi.

Shu yerning o'zida Prezidentimizga zavodning Su-25 harbiy samolyotlarini kapital ta'mirlash va chuqur modernizatsiya qilish bo'yicha yangilangan sexlari taqdimot qilindi. Ilg'or texnologiyalarni joriy qilish hisobiga endilikda korxonada texnikani zamonaviy navigatsiya tizimlari, tungi ko'rish qurilmalari va bortdagi o'zini himoya qilish komplekslari bilan jihozlash ishlari amalga oshirilmogda.

Davlatimiz rahbari tashrif yakunida mamlakatimiz mudofaa sanoati salohiyatini yanada mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

O'ZA

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV HARBIY TEXNIKALAR ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARI BILAN TANISHDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Chirchiq shahridagi texnoparkka tashrif buyurib, mudofaa sanoati korxonalari faoliyati bilan tanishdi.

Bu yerda zirhli va maxsus texnikalar hamda ilg'or funksional imkoniyatlari va texnik xususiyatlari bilan ajralib turadigan bir necha turdagi masofadan boshqariladigan jangovar modullarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Ushbu yechimlar harakatlanuvchi va turg'un nishonlarga, shu jumladan ko'rinish cheklangan sharoitlarda o't ochishni ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv, barqarorlashtirish, optik va akustik kuzatuv tizimlari, shuningdek zamonaviy nishonga olish vositalari bilan jihozlangan.

Davlatimiz rahbariga asosiy butlovchi qismlarni yig'ish, optik-elektron va barqarorlashtirish tizimlarini o'rnatish, dasturiy sozlash va germetiklikni nazorat qilish, qurol-aslahalarni integratsiyalash va kompleks sinovlarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish bosqichlari haqida ma'lumot berildi. Yakuniy bosqichda

tayyor modullar yengil zirhli texnika namunalari o'rnatiladi va dala sharoitida tekshiriladi.

Jangovar modullar turli platformalar, jumladan yengil zirhli texnika, maxsus avtomobillar, katerlar va zirhli transportyorlarni jihozlash uchun mo'ljallangan.

Loyiha bir qator xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yurtimizning tegishli idoralari va sanoat korxonalari ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Bularning barchasi mamlakatimiz mudofaa sanoati korxonalarida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, ish o'rinishlarini yaratish, o'z sanoat va texnologik bazasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari mahsulotlarning sifati va ishonchligiga doir talablarga qat'iy amal qilish, mahalliyashtirishni izchil kengaytirish, muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish muhimligini ta'kidlab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA

Muloqot

SENATORLAR VA HARBIYLAR UCHRASHUVI

Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, millatlar hamda dinlararo do'stlik va ahillikni yanada mustahkamlash masalasiga e'tibor qaratib, Qurolli Kuchlarning jangovar salohiyatini oshirish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ta'kidladi.



Vatan himoyachilari kuni, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi munosabati bilan Senatda tashkil etilgan seminar ham aynan shu jihatga e'tibor qaratildi. Senatorlar, oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari, bo'lg'usi ofitserlarga ta'lim berib kelayotgan professor-o'qituvchilar, kuch tuzilmalari mas'ul ofitserlari ishtirokida o'tgan tadbir Vatan himoyachilari uchun haqiqiy bayram tuhfasiga bo'lgani aniq. Chunki oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari va ularning ustozlari uchun Senat binosida ana shunday

nufuzli miqyosdagi tadbirga ishtirok etish imkoniyati yaratib berildi.

Seminar yig'ilishini ochib bergan Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli Qurolli Kuchlar davlat mustaqilligi, chegaralarning daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashning chinakam kafolatiga aylanib borayotganini ta'kidladi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi uzluksiz oshirilib borilishi natijasida milliy armiyamiz yoshlarni vatanparvarlik



ruhida tarbiyalashda mardlik va shon-sharaf maktabiga aylandi. Eng muhimi, xalq bilan armiya yaqin bo'layotgani harbiy soha rivojiga yangicha kuch va sifat bag'ishlamogda.

Senatorlar milliy armiyamizning yurtimiz tinchligi, mustaqilligi va xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni hamda zamonaviy xavf-xatarlar sharoitida oliy qonun chiqaruvchi organning yaratilgan huquqiy asoslarini takomillashtirish borasidagi mas'uliyatini alohida qayd etdi.

Shuningdek, halok bo'lgan harbiy xizmatchilar xotirasiga, Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi kurashishda ishtirok etgan vatandoshlarimizning o'lmas jasoratiga chuqur hurmat-ehtirom izhor etildi. Seminar so'zga chiqqanlar ularning qahramonligi Vatan himoyasi yo'lida bel bog'lagan yosh avlod uchun mardlik, yurtga sadoqat va fidoyilik namunasi sifatida hamisha olg'a boshlab borishga ishonch bildirdi.

A. RO'ZIBOYEV



PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV MUDOFAA VAZIRLIGI QO'SHINLARINING KOMPLEKS HARBIY MASHQLARINI KUZATDI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti, Qurolli Kuchlar
Oliy Bosh Qo'mondoni
Shavkat Mirziyoyev
Toshkent viloyatidagi
Maxsus operatsiyalar
kuchlari poligoni bilan
tanishdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan so'nggi yillarda Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi barcha dala-o'quv maydonlari, harbiy qism va muassasalarda modernizatsiya ishlari olib borilib, ular xalqaro standartlarga moslashtirildi.

Maxsus bo'linmalarni samarali tayyorlash maqsadida xalqaro tajriba va qo'shinnlarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olib tashkil etilgan Maxsus operatsiyalar kuchlarining yangi poligoni mazkur ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Poligon obyektlarida shaxsiy tarkibning jangovar ko'nikmalarini takomillashtirish, tayyorgarlik mashg'ulotlarini samarali yo'lga qo'yish hamda ma'naviy-ruhiy barqarorligini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi jangovar va maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkil qilishning yangi usullari bilan tanishdi. Qurolli Kuchlar bo'linmalari bilan o'tkazilayotgan mashqlarning faol bosqichini kuzatdi.





O'quv davomida turli qo'shinlarga mansub bo'linmalarning jangovar imkoniyatlari hamda ularning birgalikdagi harakatlarining muvofiqlashganlik darajasi, shuningdek qo'shinlar va qurol-yarog'ni boshqarishning yangi raqamli tizimlari namoyish etildi.

Turli jangovar operatsiyalarni o'tkazishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan samarali foydalanish usullari, shuningdek, turli xil o'quv-jangovar vazifalarni bajarish jarayonida artilleriya, aviatsiya, havo hujumidan mudofaa va quruqlikdagi qo'shinlarning birgalikdagi harakatlari ko'rsatildi.

Bunda kichik komandirlarning zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari va boshqaruv mahorati darajasi, shuningdek, harbiy xizmatchilarning tez o'zgarib borayotgan jangovar vaziyat sharoitida jang maydonida zamonaviy qurol-yarog' va texnikani samarali qo'llash bo'yicha kasbiy mahoratini baholashga alohida e'tibor qaratildi.

O'quv yakunida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni bo'linmalarning tayyorgarligi va ularning birgalikdagi harakatlarida erishilgan uyg'unlik darajasini yuqori baholadi.

Davlatimiz rahbari Qurolli Kuchlarning qo'mondonlik tarkibi bilan bo'lgan suhbatda dunyoda xavfsizlikka tahdidlar avj olayotgan bugungi tahlikali kunlarda Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini yanada mustahkamlash, xalq va armiya birdamligini ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy sohadagi islohotlarning o'zagini tashkil etishi kerakligini ta'kidladi.

Chegara qo'shinlarida

MAMLAKATIMIZ TAYANCHI,

So'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida, O'zbekiston Respublikasi suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlashga qodir bo'lgan tezkor va ixcham milliy armiyamiz shakllanib, uning saflarida xizmat qilish yurtning har bir o'g'loni uchun yuksak sharafiga aylandi.

Sohaga qaratilayotgan e'tibor natijasida, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qism va bo'linmalarining moddiy-texnik bazasi yildan yilga takomillashib, eng yangi rusumdagi qurol-aslaha va harbiy texnikalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda muhandislik inshootlari bilan ta'minlanmoqda. Eng muhimi, ushbu texnologiyalardan samarali foydalana oladigan strategik fikrlovchi, intellektual salohiyatga ega, malakali ofitser va serjantlar tarkibini tayyorlash tizimli ravishda tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan olib borilayotgan ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat natijasida, chegaradosh davlatlar bilan yaqin qo'shnichilik aloqalari yangi bosqichga olib chiqilib, tobora mustahkamlanib bormoqda. Hukumatlararo komissiya vakillarining sa'y-harakatlari bilan davlat chegarasining delimitatsiya va demarkatsiyasi, ya'ni aniq o'tgan joyiga chegara belgilarini o'rnatish ishlari jadal sur'atlarda amalga oshirilib borayotgani ham davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish samaradorligini yanada oshirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

E'tiborlisi, 2025-yili mart oyida Xo'jand shahrida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikalarining mustaqil rivojlanishi tarixida ilk bor uch mamlakat rahbarlari tomonidan davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolaniib, abadiy do'stlik deklaratsiyasining qabul qilinishi va mazkur uchrashuv doirasida O'zbekiston – Tojikiston – Qirg'iziston chegaralari tutashgan kenglikda "Do'stlik stelasi"ning tantanali ochilishi mamlakatlarimiz do'stona aloqalari tarixida yangi sahifa ochdi.

Quvonarlisi, 2025-yili noyabr oyida mamlakatimizda joriy etilgan "Yashil makon" umummilliy dasturi doirasida mazkur stela atrofida uch davlat chegarachilari bir oila bo'lib, katta umid va yaxshi niyatlarda mevali daraxtlar ekishdi.

Chegaradosh davlatlar bilan hamkorlik xususida so'z borar ekan, har yili an'anaga ko'ra O'zbekiston – Tojikiston – Afg'oniston chegaralari tutashgan



hududda o'tkazib kelinayotgan "Jayhun – 2025" hamkorlikdagi maxsus-taktik o'quvi ham yuqori saviyada tashkil etilib, unda kuzatuvchi sifatida boshqa qo'shni davlat chegaralari vakillari ham ishtirok etganini ta'kidlash o'rinni.

Eng ahamiyatlisi, 2025-yilda barcha qo'shni davlatlar, shu jumladan Afg'oniston bilan ham joylardagi chegara vakillari va chegara idoralari doirasida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazilib, chegaralar daxlsizligini hamkorlikda ta'minlab borish masalalari bo'yicha qator kelishuvlarga erishildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari MDH, ShHT va boshqa qator davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar doirasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yib, o'tkazilayotgan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar, o'quv mashqlari, kadrlarni tayyorlash hamda ilg'or tajribalarni o'rganish borasidagi xalqaro konferensiya va seminarlarda ham muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston MDH davlatlari Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashining a'zosi sifatida ham samarali hamkorlik olib boradi. Ushbu kengashning 2026-yildagi yig'ilishiga mamlakatimiz mezbonlik qilishi rejalashtirilgan bo'lib, mazkur jarayonga tayyorgarlik ishlari davom etmoqda.



XALQIMIZ FAXRI!



Jangovar xizmat faoliyati xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, so'nggi yillarda chegarani qo'riqlash tizimida zamonaviy uchuvchisiz uchish apparatlaridan keng foydalanilib, yildan yilga jangovar texnika parkini yangilash, xizmat avtomashinalari, qo'riqlov katerlari hamda zamonaviy qurol-aslaha va anjomlar bilan ta'minlash bo'yicha ishlarni tizimli ravishda olib borilayotganini ta'kidlash o'rinli.

Zamonaviy texnologiyalar bilan birga, chegarachilarning sodiq do'stlari bo'lgan xizmat hayvonlari ko'magidan ham keng foydalanilib, mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada yaxshilash maqsadida, 2025-yilda Chegara qo'shinlarining Kinologiya va kavaleriya ta'minoti markazi to'liq ta'mirdan chiqarildi. Quvonarlisi, kinolog hamda chavandozlarimiz yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, chegara xizmatini o'tash bilan birga xizmat hayvonlari ishtirokida qator xalqaro va respublika miqyosidagi musobaqalarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

Chegaralarimizda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, muhandislik inshootlarini barpo etish, chegaraoldi aholi punktlarida, ayniqsa yoshlar

orasida tushuntirish tadbirlarining keng miqyosda o'tkazilishi, yaqin qo'shnichilik siyosati doirasida chegaradosh davlatlar chegara idoralari bilan yanada mustahkam hamkorlik olib borilayotgani, avval to'xtatilgan o'tkazish punktlari faoliyatining qayta yo'lga qo'yilishi, fuqarolarning chegaradan o'tish tartibining soddalashtirilishi natijasida, davlat chegarasi qonunchiligining buzilishi holatlari bir necha barobar kamayishiga, turistik, biznes va boshqa maqsadlarda kirib-chiqishlar sonining esa bir necha barobar oshishiga erishildi.

Albatta, mazkur natijalarni qo'lga kiritish harbiylarimizdan katta fidoyilikni talab etadi. Ana shu mas'uliyatni chuqur anglagan holda bugungi kunda zamonaviy standartlarga javob bera oladigan jangovar tayyorgarlik tizimi yaratilib, harbiy xizmatchilar o'rtasida o'tkazilayotgan turli ko'rik-tanlov va musobaqalar jangovar tayyorgarlik sifatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, 2025-yilda 135 nafar sarhadlarimiz himoyachisi "Dovyurak jangchi" farqlovchi nishoni sohibiga aylangan bo'lsa, xalqaro va respublika musobaqalarida harbiy sportchilarimiz 56 ta oltin, 28 ta kumush, 47 ta bronza jami 212 ta medalni qo'lga kiritdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2025-yilda o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlarida va bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralarining qo'riqlanishini o'zida mujassam etgan DXX Chegara qo'shinlari muzeyi qayta rekonstruksiya qilinib, boyitildi va zamonaviy ko'rinishga keltirildi. E'tiborlisi, muzeyimizda "Yangi O'zbekiston" davridagi faoliyatga bag'ishlangan alohida bo'lim ham tashkil etildi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasi yo'nalishida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar natijasida, zamonaviy turdagi chegarani qo'riqlash vzvodlari namunaviy loyiha asosida qurilib, barcha shart-sharoit va qulayliklarga ega xizmat xonadonlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qisqa muddatli guruhlari va kichik tikuv sexlari qurilib foydalanishga topshirildi.

Xulosa o'rinda qayd etish lozimki, sarhadlarimiz posbonlari yaratilayotgan munosib xizmat va turmush sharoitlaridan unumli foydalanib, davlatimiz chegaralarini mas'uliyat bilan mustahkam qo'riqlashda davom etadi.

**Polkovnik
Sobirjon ISOQOV**
DXX Chegara qo'shinlari



MARDLIK VA JASORAT BAYRAMI

Mudofaa vazirligi markaziy apparatida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tantanali bayram tadbiri o'tkazildi.

Videokonferens-aloqa tarzida tashkil etilgan tadbirda harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirni mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov kirish so'zi bilan ochib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan boshqa sohalarda bo'lgani kabi milliy armiyamizda ham so'nggi o'n yilda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilganini ta'kidladi.

Darhaqiqat, bugun Yangi O'zbekiston armiyasi har tomonlama rivojlandi. Jangovar shayligi yuqori, zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan to'liq butlangan va bu jarayon izchil davom etmoqda. Saflardagi azamatlarning mardligi, shijoati, sadoqatiga butun dunyo lol qolayotgani ham ayni haqiqat. Chunki eng kuchlilar, ta'bir joiz bo'lsa, professionallar o'zaro kurash olib boradigan turli darajadagi musobaqa va tanlovlarda ahdiga sodiq o'g'lonlar mashaqqatli vazifalarni kutilganidan a'lo darajada bajarib kelmoqda. Bu natijalar zahirida esa davlatimiz tomonidan Vatan tinchligiga mas'ullar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va g'amxo'rlik yotibdi.

Shundan so'ng Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoni o'qib eshittirildi. Unga ko'ra, Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi yurt farzandlarini ham davlat mukofotlari bilan munosib taqdirlash belgilangan:

"Mardlik" ordeni bilan:

– podpolkovnik Sardarbek Vapayev.

"Jasorat" medali bilan:

– podpolkovnik Amirxon Ergashev;
– kapitan Mansur Shomuratov;
– III darajali serjant Alishoh Abdullayev;
– III darajali serjant Azimjon Ibragimov;
– kichik serjant Ziyodullo Suleymanov.

"Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan:

– katta leytenant Oybek Ergashev;
– kapitan Abdurauf Karimov;
– katta serjant Maqsud Jo'rayev.

"Shuhrat" medali bilan:

– katta serjant Jaxongir Eliyev.

Shuningdek, 2025-yilda "Men g'olib!" shiori ostida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'tkazilgan "O'z kasbining ustasi" unvoni uchun ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'oliblari ham birinchi darajali diplom hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi:

"Eng ilg'or brigada komandiri" nominatsiyasi g'olibi – podpolkovnik Ibrat Masharipov;

"Eng ilg'or batalyon komandiri" nominatsiyasi g'olibi – podpolkovnik Madiyor Saidov;

"Eng ilg'or vzvod komandiri" nominatsiyasi g'olibi – mayor Bexzod Qo'chqorov;

"Eng ilg'or guruh komandiri" nominatsiyasi g'olibi – kapitan Ravshanjon Majidov;

"Eng ilg'or serjant" nominatsiyasi g'olibi – III darajali serjant Obidjon Rajabov.

Shu kuni Qurolli Kuchlar tizimida ilk bor Mudofaa vazirligi bosh serjanti – master-serjant Alisher Mirzakarimov va bosh serjant yordamchisi – master-serjant Yodgorbek Atanayevga serjant-mayor harbiy unvoni topshirildi.

Bundan tashqari, III darajali serjant Gulnoza G'aybullayeva va Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sport bo'limi yo'riqchisi kichik serjant Sharifa Davronova "To'maris" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Shu bilan birga, bir guruh harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvon va ko'krak nishonlari ham tantanali topshirildi.

Albatta, Vatan himoyachilari kuni har yil xalqimizga ko'tarinkilik bag'ishlaydigan eng aziz bayramlardan biri. Uni, ta'bir joiz bo'lsa, hayot bayrami, umid bayrami, taraqqiyot bayrami deging keladi. Chunki tilga olgan va olinmagan ezguliklarning bari tinchlik tufayli, uni asrayotgan mardlar tufayli. Qolaversa, har qanday davlat mustaqilligining birinchi kafolati uning armiyasidir. O'tgan davr mobaynida yurtimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz yangi qiyofa kasb etdi. Zotan davlatimiz tomonidan tinchligimiz posbonlariga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik sharafligini kasb egalarini xalqimizga va Vatanimizga yanada sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**



Qahramonlar nomi barhayot

Vatanni sevmoq iymondandir. Rosti ham shunaqa, dilida Xudosi yo'q odam Vatanni sevarmidi? Uning tinchligi, osoyishtaligi uchun jon berishga tayyor turarmidi? Har gal shu hadis yodimga tushganida yurt uchun xizmat qilayotgan askarlar ko'z oldimga keladi. Ular naqadar katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olganlar. Oilasi, farzandlaridan uzoqda bo'lsa-da, shu yurt koriga yarash uchun jon-jahdi bilan xizmat qiladi.



VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

Taassufki, yurtga olaqarash qilayotgan g'animlar bugungi kunda ham yo'q emas. Bu talotum zamonda besh barmog'ini og'ziga tiqayotganlar, go'daklar qoni bilan yuz yuvayotganlar, nodomatki bor. O'yilasang, eting uvushib ketadi, yuraging orqaga tortadi. Shunday chog'lar senga dalda bo'luvchi yagona narsa Vatanning kelajagi mard, jasur yigitlar armiyasiga ega ekanimizdir.

Vatan himoyachilari kunida ikki qahramonni yod etmoqni ixtiyor etdim. Bu yigitlar shu Vatan koriga yaranagan, uni ko'z qorachig'idek asragan. Kezi kelganda, jonini ham ayamagan mangu jasorat timsollaridir. Ularning nomini tilga olar ekanman, beixtiyor ko'zlarimda yosh aylanadi. Muhiddin Eshtemirov, Bobur G'aniyev yurtning, xalqning chinakam qahramonlari. Oldi-qochdi gapdan biroz chekinib, qahramonlar haqida biroz so'zlab bersam.

Oxirgi paytlar Sariosiyo voqealarida halok bo'lgan qahramonlar haqida ko'p yozdim. Har birining taqdiri boshqasiga o'xshamagan, har birining o'z hikoyasi bor. Yozmay ham ko'ring-chi, o'z holingizga qo'yarmikan, bu achchiq qismatlar.

O'n gulidan biri ham ochilmagan yigitlarning yov qarshisida Vatan tinchligi yo'lida fido bo'lgan umrlari haqida shunchaki qog'oz qoralash tubanlikdan boshqa narsa emas. Qisqa umri davomida barhayot yashab kelayotgan qahramonlar hech qachon bu millatning ko'nglidan chiqmaydi.

Bugun sizlarga so'zlab bera olmayotgan, nomini tilimga olsam, vujudim titroq ichida qolganidek qiynalayotgan hikoyam ham Vatan tinchligi yo'lida qahramonlarcha jon bergan jasur yigit Muhiddin Eshtemirov haqida.

Malumot o'rinda: Muhiddin Husanovich Eshtemirov 1975-yil 13-aprel kuni Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi Namuna mahallasida tug'ilgan. 1992-yilda umumta'lim maktabini a'lo baholar bilan tamomlagach, Termiz davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirgan. Ushbu bilim maskanini 1997-yilda muvaffaqiyatli tugatgan Muhiddin o'zining muqaddas burchi – Vatanni

himoya qilish maqsadida muddatli harbiy xizmatga safarbar etilgan. 2001-yili may oyida Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda kontrakt bo'yicha xizmatga qabul qilingan.

2001-yil 14-iyul kuni Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanining tog'li hududida bo'lib o'tgan jangovar harakatlar chog'ida dushmanga qarshi mardlarcha kurashib, qahramonlarcha halok bo'lgan.

Bolaligi olis Surxon tog'laridan osmonga tutashib ketgan beadoq kengliklarda o'tgan. Tabiatan ziyrak, bilimga chanqoq, musiqani jon-dilidan sevib, qo'shiqlar kuylab ulg'aygan qishloqning chinakam jaydari farzandi. Onasining ta'biri bilan aytganda, qishloqning eng oldi yigitlaridan. Keling, shu suhbatni qahramonimizning onasidan tinglaymiz.

– To'qqizta farzandim bor: beshta o'g'il, to'rtta qiz. Muhiddin oltinchi farzandim edi. Kichkinaligidan zukko edi, hamma ishni joy-joyida qilar, aytmasimdan, barcha vazifalarni ortig'i bilan bajarardi. Qishloqchilik, mol-hol degandek, o't olib kelish, yer chopish, dala ishlari bo'ladimi, birortasidan bo'yin tovlamagan. Yugurib-yelib xizmatimni qilardi bolam. Bolaligi sport va san'atga uyg'un o'tgan. Gitara chalib, qo'shiq kuylardi, mahalladagi xotinlar bormi, qizlar bormi, hammasi yig'ilib kelardi, qo'shiq eshitgani. Karate, kurash bilan shug'ullanardi. To'ylarda kurash tushib, qishloqning orini ham olib yurgan. Maktabda o'n yil o'qigan bo'lsa, biror marta ham yomon gap eshitmaganmiz. Maktabni tugatgach, Termiz universitetida tarix fakultetida o'qib, a'lo baholar bilan tugatib, armiyaga xizmat qilishga ketdi. Harbiy xizmatda ham eng faol askarlardan bo'lgan, bolam. Kelgandan so'ng otasi maktabga ishga joylab qo'yay dedi, unamadi. “Yo'q, men Vatan himoyachisi bo'laman, Vatanimga xizmat qilaman”, deb turib oldi. Bolamning ra'yiga qarshi bora olmadik, keyin o'zim ham farzandimni Vatan himoyasida ko'rishni judayam istardim.

Oxirgi bor tug'ilgan kunimga kelgandi, xizmatdoshlari bilan. Onamni bir ko'rib kelay, deb do'stlarini ham ovora qilibdi-da, o'limi ko'ziga ko'ringanmi, bolam bechorani faqat yaxshi gaplar bilan, meni yaxshi

ko'rishini bot-bot takrorlab, “Onajon, sizga kelin olib kelaman”, deb hazil qildi-da, chiqib ketdi, shu bo'yi qaytmadi.

Bu dunyoda shunday qismat parchalari borki, ularning dodiga yer-u samo larzaga keladi. Xuddi shunday qismat yozig'i bilan jarohatlangan yana bir yurakning dodiga quloq tuting.

Yozning tafti so'nib, o'rmini kuzning mayin shamollariga tuhfa etgan mahal. Yomg'irning shivirlab yog'ishi yaproqlarning badanini qitiqlab, o'zini qo'yarga joy topolmay, titrayotgan bir oqshom olis Marg'ilon diyorida bir bola dunyoga keladi. O'sha kuni osmon go'yo bir yulduzini yerga bergandek tun bo'yi yig'ladi. Har nima bo'lganda ham, Vatan uchun jonini ayamaydigan qahramon yigit dunyoga keldi.

Bobur G'aniyev tabiatan kamgap, aytgan so'zining ustidan chiqadigan, bir so'zli yigit edi. Bu yoshgina bolaning xatti-harakatlari hammani lol qoldirardi. Bo'sh vaqtlarini boshqalar singari o'yinqaroqlik bilan o'tkazmasdi, qo'lidan kitob qo'ymasdi. Jismoniy chiniquqan, sochlari silliq, ko'zlari katta-katta bu yigitcha butun qishloq ko'nglidan birdek joy olgandi.

U maktabni tamomlagach, Marg'ilon tijorat texnikumida o'qishni davom ettirdi. 2000-yilda esa Toshkent elektrotexnika aloqa institutining maxsus fakultetini tamomladi. Keyin esa harbiy sohada faoliyat olib bordi. Endi uning uchun Vatan kattalashdi, bir qishloq bo'ldi, bir shahar bo'ldi, bus-butun O'zbekiston bo'ldi. Komandirlari buyurgan biror yumushdan bosh tortmas, vazifani ortig'i bilan bajarardi.

2000-yilning avgust oyida bir guruh terrorchilar Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari tog'li hududlariga bostirib kirishdi. Tish-tirnog'i bilan qurollangan to'dalar hech kimni ayagan emas. Vatan himoyasi yo'lida jangga kirgan mard askarlarimiz qisqa vaqt ichida jangarilarga qarshi harakatlarni boshlab yubordi. Ular orasida Boburjon G'aniyev ham bor edi.

Harbiy samolyotlardan berilgan zarbalar oz vaqt ichida dushmanni sarosimaga solib qo'ydi. Hududni tozalash jarayonida guruh komandirining o'rinbosari leytenant

Boburjon G'aniyev berilgan vazifani hushyorlik bilan bajarar edi. Bir kuni u terrorchilar pistirmasini sezib qoldi. Vaziyatga baho berib, tezkor qaror qabul qildi-da, qulay pozitsiyani egalladi. Natijada shu kuni jangda safdoshlari bilan bir nechta jangarini yo'q qildi.

Quyosh g'urubga botayotgan edi, o'zining nazoratida bo'lgan darani ko'z qorachig'idek asrayotgan leytenant Boburjon G'aniyev va uning qo'l ostidagi askarlar har bir qoya o'ngirlarini ko'zdan kechira boshladi. Tun cho'kib, sokinlik yurakni g'ashlab borardi. Bir payt qoyalar orasiga pistirma qo'ygan dushman g'alamislari harbiylarimiz tomon o'q ota boshladi. Sokinlik buzildi, dushman nishoniga g'ov bo'lgan leytenant yaralandi. Oyog'idan sizayotgan qonga ham zarracha e'tibor bermay, harakatni davom ettirdi. G'alamislarga qarshi mardona bordi. Qurolsoshlariga xavfsiz yerga o'tishini buyurib, o'zi jangarilarga qarshi yolg'iz kurashdi. Do'stlari Boburjonning yoniga borishga qancha urinmasin, qarshilik qildi. U tungi ikkigacha terrorchilarga qarshi yolg'iz jang olib bordi...

O'sha kecha motam libosini kiydi, yulduzlar go'yo yerdagi jon-jigaridan ayrilganidek, xomush boqardi. Hamma yig'ladi. Uni jang maydonidan olib chiqishganida vujudining sakkiz joyiga o'q tekkaniga guvoh bo'ldilar...

Boburjon G'aniyev Vatan tinchligi yo'lida mardlarcha jon berdi. Har gal shu jasur yigitlar haqida nimadir qoralar ekanman, yuragimni hovuchlab turgandek bo'laveraman. Onam ko'z oldimga keladi. Ikki kun qo'ng'iroq qilmasam, xavotirlanib ko'nglidan ming xayollar o'tkazib, yig'lashga tushadigan munis onam! Bu yigitlarning onalarichi? Aslida ularga ham qahramon farzandining dog'ini ko'tarish osonmas. Lekin ular boshlarini tik tutib, “Vatanimga xizmat qilaman!” deya qasamyod qilayotgan askarlardek mag'rur bo'ldi. Asli bu mo'tabar insonlar Vatani har nedan ustun qo'ya olgan qahramonlardir!

Muhammadali G'AFFOROV,
“Vatanparvar”

Yangi O'zbekiston posbonlari e'tirof va e'zozda

MILLIY ARMIYA — ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan poytaxtimizdagi "Xalqlar do'stligi" saroyida tantanali tadbir bo'lib o'tdi.



Unga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi vakillari, senatorlar, deputatlar, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, DXX Chegara qo'shinlari, Bojxona qo'mitasi va boshqa harbiy soha, huquq-tartibot idoralarining vakillari, faxriylar, harbiylarning ota-onalari, oila a'zolari taklif etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigini O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov o'qib eshittirdi.

Tabrikda ta'kidlanganidek, bugun xalqimiz Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ulkan yutuq va marralarni qo'lga kiritmoqda. Hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi tarixiy o'zgarishlarda Qurolli Kuchlarimizning ham munosib hissasi bor.

– Bu yil Prezident farmoni bilan berilgan "Jasorat" medalini olish men uchun katta iftixor va mas'uliyat bo'ldi. Harbiy xizmatchilarga berilayotgan e'tibor va rag'bat albatta butun jamoani sadoqat bilan mehnat qilishga undaydi. Bizga bildirilayotgan ishonchni oqlash, Vatan tinchligi yo'lida o'z hissamizni qo'shish uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. Bugungi tantanali bayram milliy armiyamizga bo'lgan faxr tuyg'usini yanada kuchaytirdi va barchamizni bir maqsad sari birlashtirdi. Fursatdan foydalanib, barcha yurtdoshlarimizni bayram bilan samimiy tabriklayman! – deydi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism komandirining o'rinbosari podpolkovnik Amirxon Ergashev.

Chindan ham bugun milliy armiyamiz kun sayin rivojlanib, jangovar salohiyati va kasbiy mahorati jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda, bu esa mamlakatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona va uzoqni ko'zlagan siyosat, harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan munosib shart-sharoitlar, zamonaviy infratuzilma va ilg'or texnika bilan ta'minlash borasidagi izchil islohotlarning yorqin samarasidir.

Tantanali tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddinjon Ismoilov, Bosh vazir Abdulla Aripov ishtirok etdi.

Bayram tadbirida mustaqilligimizni, tinch va osoyishta kunlarimizni, mehnatsevar xalqimizni, milliy armiyamizdagi islohotlar jarayonlarini aks ettirgan videolavhalar namoyish etildi, O'zbekiston Qurolli Kuchlari Markaziy ashula va raqs ansambli, yurtimizdagi badiiy jamoalar, ustoz san'atkorlar va yosh xonandalar ishtirokidagi katta konsert dasturi barchaga a'lo kayfiyat, bayramona ruh ulashdi.

Vatan himoyasini hayotining mazmuniga aylantirgan mard va jasur o'g'lonlarimizni sharaflashga qaratilgan bunday tantanali tadbirlar xalqimiz qalbida milliy armiyamizga bo'lgan chuqur ishonch va faxr tuyg'ularini yanada mustahkamlab, Yangi O'zbekistonning osoyishta, barqaror va farovon kelajagiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishga xizmat qiladi.

TAHRIRIYAT



Milliy armiyamiz – Yangi O'zbekiston poydevori



QUROL BILAN BIRGA RUH HAM TARBIYALANADI

G'alabaga faqat texnik ustunlik yoki qurol-aslaha bilan erishilmaydi. Uning asosi harbiy xizmatchilarning ichki tayyorgarligi, ruhiy barqarorligi, irodasi va ma'naviy mustahkamligida hamdir. Shuning uchun jangovar tayyorgarlik jarayonida qurolni boshqarish bilan birga harbiy xizmatchilarning ruhini tarbiyalash ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Shuningdek, madaniy hordiq chiqarish jangovar tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini mustahkamlaydi, jamoada sog'lom muhitni shakllantiradi hamda xizmat samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Ayni shu maqsadda Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 34 yilligi munosabati bilan "Milliy armiyamiz – Yangi O'zbekiston poydevori" shiori ostida Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Chirchiq shahridagi o'quv jarayonini ta'minlash bazasida shaxsiy tarkibning ma'naviy-ruhiy holatini mustahkamlashga qaratilgan "Jangovar tayyorgarlik jarayonida madaniy hordiq chiqarish ishlarini tashkillashtirish" mavzusida ko'rgazmali-amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

Dala sharoitida tashkil etilgan ushbu mashg'ulotda kursantlar ikki jamoaga bo'linib, 12 ta to'siqdan iborat 240 metrli yo'lak bo'ylab o'zlarining ruhiy va jismoniy qobiliyatini sinovdan o'tkazdi. Ob-havoning inijligiga qaramasdan, ishtirokchilar belgilangan vaqtda o'zlarining mahoratini namoyon etdi. Mashqlarda toblangan yurt posbonlariga ushbu to'siqlar hech bir qiyinchilik tug'dirmadi. Belgilangan vaqtda topshiriq yakunlandi va "Yashin" jamoasi "Liderlar" jamoasini ortda qoldirib, "Biz g'olib – biz kuchli" jangovar bayrog'ini shartli tepalikka o'rnatib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Bugun biz nazariy o'rgangan bilimlarimizni dala sharoitida amaliyotda sinab ko'rmoqdamiz, – deydi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining 3-kurs kursanti Ozodbek Inoyatov. – Turli ob-havo sharoitida berilayotgan topshiriqlar biroz qiyinchilik tug'dirmoqda. Chunki nazariya baribir nazariya. Amaliyotda o'zimiz haqiqiy vaziyatda

real topshiriqlarni bajaramiz. Ammo biz ushbu qiyinchiliklarni sabot bilan yengib o'tmoqdamiz. Bunday mashg'ulotlar harbiy xizmatchilarning jamoaviy harakat qilish, ruhiy barqarorligini mustahkamlash hamda murakkab vaziyatlarda bir-birini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini yanada oshiradi.

Hash-pash deguncha qosh ham qorayib, kun ham o'z o'rnini tunga bo'shatdi. Erta tongdan to qora kechgacha mashg'ulotlardan tolgan kursant va harbiy xizmatchilar uchun tun qo'ynida madaniy tadbir tashkil etildi. Harbiy xizmatchilar gulxan atrofida samimiy suhbat qurib, xizmat jarayonida uchraydigan turli vaziyatlar, Vatanga sadoqat, harbiy burch va jamoada o'zaro qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan suhbat qurdi. Kursantlar tomonidan gitara bilan jonli ijroda kuylangan Vatan haqidagi qo'shiqlar davraga o'zgacha kayfiyat olib kirdi.

Harbiy orkestr guruhining musiqiy chiqishlari, ijro etilgan kuy-qo'shiqlar dala sharoitida xizmat olib borayotgan shaxsiy tarkibga jangovar ruh bag'ishladi.

Bunday mashg'ulotlar jangovar tayyorgarlik samaradorligini oshirishga, shaxsiy tarkibning xizmatga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytirishga hamda harbiy xizmatchilar o'rtasida birdamlik va o'zaro birodarlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



Avlodlar uchrashuvi

Yurtimizda Vatan himoyachilari kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanib, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy armiyamizga nisbatan faxr va sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan Navoiy viloyatining Karmana tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'linmasi tomonidan harbiy xizmatchilar ishtirokida "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni" shiori ostida "Uch avlod uchrashuvi" nomli madaniy-ma'rifiy tadbir hamda ochiq eshiklar kuni tashkil etildi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligiga bag'ishlanib, unda faxriylar, umumta'lim maktablari o'qituvchi va o'quvchilari, shuningdek harbiy xizmatchilar faol ishtirok etdi. Tadbir avlodlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiyamiz tarixiga bo'lgan hurmat va e'tiborni yanada oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Uchrashuv davomida Qurolli Kuchlar faxriylari tomonidan Vatanimiz tarixining shonli sahifalari, milliy armiyamizning shakllanish bosqichlari, yurt tinchligini ta'minlash yo'lida fidokorona xizmat qilgan mard va jasur harbiy xizmatchilar jasorati haqida ibratli xotiralar so'zlab berildi. Shuningdek, yoshlar bilan muloqot chog'ida harbiy xizmatning sharafiga, mas'uliyati hamda Vatanni himoya qilish muqaddas burch ekani alohida ta'kidlandi.



VATAN HIMOYASI – SHARAFLI BURCH



So'zga chiqqanlar tomonidan Prezidentimiz tashabbusi bilan Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan zamonaviy shart-sharoitlar, ijtimoiy himoya tizimi, harbiy ta'lim muassasalaridagi yangiliklar haqida atroflicha ma'lumotlar berildi. Bu esa yoshlar qalbida milliy armiyamizga bo'lgan qiziqish va ishonchni yanada mustahkamladi.

Maktab o'quvchilari tomonidan tayyorlangan vatanparvarlik ruhidagi chiqishlar, she'rlar va sahna ko'rinishlari tadbirga alohida fayz bag'ishlab, unda ishtirok etgan barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Harbiy xizmatchilar esa yoshlar bilan bo'lgan bunday samimiy muloqot ularni yanada ruhlantirishi, xizmat burchini sidqidildan ado etishga undashini ta'kidladi.

Umuman olganda, "Uch avlod uchrashuvi" tadbiri samimiy va

ko'tarinki ruhda o'tib, harbiy xizmatchilar hamda yoshlarni Vatanni yanada sevishtga, uni ardoqlashga, yurtimizning har bir qarich yerini asrab-avaylashga da'vat etdi. Bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar milliy armiyamiz nufuzini oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati**



DAVRLAR OSHA MULOQOT

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida "Uch avlod uchrashuvi" bo'lib o'tdi.

Videokonferens-aloqa shaklida o'tgan tantanada Bosh prokuratura huzuridagi Jamoatchilik kengashi, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jamoatchilik markazi, Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi vakillari, faxriylar, Bosh prokuratura, Toshkent shahri va viloyati prokuraturalari hamda ular tizimidagi tuman (shahar)

prokuraturalari, shu bilan birga harbiy prokuratura xodimlari ishtirok etdi.

Dastavval, barcha birgalikda jo'r bo'lib davlatimiz madhiyasini ijro etdi.

So'z olgan faxriylar o'z tajribalari va sohaga doir xotiralar bilan o'rtoqlashdi. Yangi O'zbekiston sharoitida Prezidentimizning e'tibor va g'amxo'rliklari bilan barcha sohada bo'lgani kabi prokuratura

organlarida ham amalga oshirilgan va izchil davom etayotgan ulkan islohotlar, bugungi kunda xodimlarga yaratilgan sharoitlar e'tirof etildi.

Ustozlarning vatanparvarlik tuyg'usi va shukronalik hissi bilan el-yurt manfaati yo'lida fidokorona xizmat qilish haqidagi o'git va maslahatlari barcha uchun hayotiy saboq vazifasini o'tadi.

Jarayonda sohada fidokorona xizmat qilib kelayotgan xodimlardan

bir guruhi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Harbiy prokurorining, shuningdek mudofaa va favqulodda vaziyatlar vazirlarining, Milliy gvardiya va DXX Chegara qo'shinlari qo'mondonlarining tegishli buyruqlariga asosan taqdirlandi.

**Adliya podpolkovnigi
Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining
katta yordamchisi**

Inson qadri



HECH BIR MUROJAAT E'TIBORSIZ QOLMAYDI

Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida inson qadrini ulug'lash, aholi bilan ochiq va samarali muloqot o'rnatish hamda har bir murojaatni o'z vaqtida hal etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, og'ir hayotiy sinovlarga duch kelgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash davlat va jamoatchilikning muhim vazifasiga aylanmoqda. Bu borada olib borilayotgan amaliy ishlar xalqning davlatga bo'lgan ishonchi va ertangi kunga umidini mustahkamlayotgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ana shunday ezgu ishlardan biri O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining shaxsiy qabuliga murojaat qilgan Buxoro viloyatining Jondor tumanidan kelgan Jonibek Jo'rayev masalasi misolida yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu fuqaro 2004–2024-yillar mobaynida milliy armiyamiz saflarida xizmat qilgan, ammo baxtsiz hodisa oqibatida uyida sodir bo'lgan yong'in tufayli vafot etgan akasi – marhum Otabek Jo'rayev hamda uning marhuma turmush o'rtog'iga tegishli uy-joyi qayta qurish, shuningdek yong'in natijasida turli darajada tan jarohatlari olgan farzandlarini davolash masalasida amaliy yordam so'rab murojaat etgan edi.

Mazkur murojaat tegishli mas'ullar ishtirokida chuqur o'rganildi va O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri tomonidan alohida nazoratga olindi. Xususan, ikki kun muddat ichida yangi quriladigan uyning loyihasini ishlab chiqish, uni zamon talablariga muvofiq qayta barpo etish hamda marhum

Otabek Jo'rayevning farzandlarini plastik jarrohlik amaliyoti orqali sog'lom hayotga qaytarish bo'yicha mutasaddilarga aniq ko'rsatmalar berildi.

Shunday qilib, murojaat ijobiy hal bo'ldi. Mudofaa vazirligi tomonidan tashkil etilgan ishchi guruh belgilangan muddat ichida marhumning uy-joyini yangidan barpo etib, barcha zamonaviy qulayliklarga ega, shinam va mustahkam xonadon qad rostladi. Qurilish ishlari davomida harbiy xizmatchilar va soha mutaxassislari jalb etildi. Nihoyat, uy tantanali ravishda foydalanishga topshirildi!

Ushbu tadbirda Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi rahbariyati, viloyat va tuman hokimliklari vakillari, mudofaa ishlari boshqarmasi, hududda joylashgan harbiy qism qo'mondonligi, marhumning yaqinlari, mahalla faxriylari, yoshlar hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi.

Marosimda so'zga chiqqanlar marhumni xotirlab,

mamlakatimizda inson qadrining ustuvor ekani, hech bir murojaat e'tiborsiz qolmasligi, milliy armiyamizda harbiy xizmatchilar va ular oilalari uchun mustahkam ijtimoiy himoya tizimi yaratilganini alohida ta'kidladi va bu ezgu ishlar uchun davlatimiz rahbari va Mudofaa vazirligi rahbariyatiga minnatdorlik izhor etdi.

Xonadon egalarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda maishiy texnika vositalari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa zarur jihozlar taqdim etildi. Tadbir davomida mehmonlar yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, ezgu niyatlar ila xonadon hovlisiga daraxt ko'chatlarini ekdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu kabi aniq amaliy ishlar, xalq manfaati yo'lida qilingan ezgu tashabbuslar jamiyatda ishonch va shukronalik tuyg'ularini mustahkamlab, yuksak kelajak sari dadil qadam tashlashga ruhlantirmoqda.

Yana bir muhim jihat, yuqorida bayon etilgan voqea inson qadrini

ulug'lash g'oyasi quruq shior emas, balki hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgan izchil siyosat ekanini yaqqol namoyon etadi.

Ana shu ezgulikning mantiqiy davomi sifatida 2026-yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" davlat dasturi doirasida Mudofaa vazirligi tomonidan ham birlashtirilgan mahallalarni har tomonlama rivojlantirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun munosib turmush sharoiti yaratish, ijtimoiy himoya va g'amxo'rlikni yanada kuchaytirishga qaratilgan keng qamrovli, tizimli ishlar izchil davom ettirilishi belgilab qo'yilgan. Davlat va xalq o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydigan, inson manfaati ustuvor bo'lgan bunday siyosat esa Yangi O'zbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevori ekani shubhasiz.

TOQQQ matbuot xizmati



"Tog'lik qiz"ning gaplari

Mening dadam HARBIY

Men buxorolikman, Namanganda tug'ilganman, Farg'onada tahsil olaman. Juda qiziq, shunday emasmi? Har bir insonning hayotida kutilmagan sarguzashtlar-u voqealar yetarlicha topiladi, inchunin, menikida ham...



Esimni tanibmanki, hali bir yerda muqim yashaganimizcha yo'q. Butun O'zbekiston viloyatlarini kezib chiqqanman, desam ham, mubolag'a bo'lmaydi. Ayni dam – tun yarmida, mo'jazzina xonamning bir burchagida, qo'limga qalam ushlagancha ko'rgan-kechirganlarimning barini oq qog'ozga to'kib solmoqchiman...

Nazarimda, barchasi bundan ko'p yillar avval, ona shahrim Buxoroda, dadam harbiy bo'lishni yuraklariga tugib qo'ygan kunlaridan boshlangan bo'lsa kerak. Qanday baxtki, vaqt o'tib, dadam niyatlariga erishdilar. Vatanga sadoqat bilan xizmat davomida mustahkam oilamiz bunyod bo'ldi. Mendan oldin ikki akam bor. Men, kenjatoy Namanganda, shukrki, osmono'par binolar emas, balki osmonga bo'ylashgan tog'lar bag'rida, Pop tumanida tug'ilganman (aynan shuning uchun ham qarindoshlarimiz meni "tog'lik qiz" deb chaqiradi). Shundan beri umrim sayohatnomasi davom etib kelmoqda...

Hali tetapoya qilmasimdan Farg'onaga ko'chib kelganmiz. Bu yerning chinorlariga qarayman deb, men, mittivoyning ham bo'yi o'sib qolgan o'shanda. Ko'p o'tmay, "Qo'qon shamoli"

bizni Andijon tomonga uchirdi. Undan so'ng Samarqand, ikki yil o'tar-o'tmas yana Farg'ona o'z bag'riga chorladi (kichkinaligimda menga chinorlarining mehri tushib qolgan shekilli). Umuman olganda, bularning bari qiziq, sababi agar men harbiy inson farzandi bo'lmaganimda hayotimdagi ahamiyatli va yorqin xotiralarning bari Vatanning har qaysi yerida sodir bo'lishini xayol ham qilmagan bo'lardim.

Vatan himoyachisining oilasi bo'lish mashaqqatli yo'llarni u bilan birgalikda bosib o'tish demakdir. To'g'ri, ular yurt kezib yurishi mumkin, ammo qayda bo'lmasin, yuragining bir chetida do'st-u yorlar, qon-qarindoshlar sog'inchi sanchiq berib turadi. Buni hech qanday mubolag'alarsiz aytyapman, chunki o'zim ham shu sanchiqni ko'p marta ko'ksimda tuyganman. Qolaversa, har bir yangi joyga ko'chganingizda begona muhit, begona odamlar, barcha-barchasi sizni yutib yuborgudek dag'-dag'a qiladi. Bariga moslashguningizcha kamida oradan yarim oycha o'tib ketadi. Hammasi o'z iziga tushib ketganida esa yana boshqa joyga ko'chib ketasiz. Agar maktab yoshida bo'lsangiz, bir

necha bor maktab almashtirishga to'g'ri keladi. Hozirgacha shaxsan o'zim beshta maktabda o'qiganman, bu esa kamida to'qsondan oshiq sinfdoshim bo'lganini anglatadi. So'zimning shu yerigacha o'zim haqimda yozdim, endi esa otam haqlarida so'z yuritmoqchiman.

Ota... Bu so'zni aytar ekanman, yuragim faxr hissig'a to'ladi. Nega to'lmasin?! O'ttiz yillik sadoqatli xizmat, Vatan himoyasiga sarf bo'lgan umr, bedor tunlar, yurt tinchligini o'ylab qirov qo'ngan sochlar, qadoq qo'llar-u iymoni butun yurak sohibi bo'lmish inson sening otang bo'lsa, bundan qandoq g'ururlanmaslik mumkin? Isbot deysizmi? Sizga qandaydir hujjatlar taqdim etolmasman, balki, ammo hali quyosh ufqdan bosh ko'tarmay turib xizmatga shoshib ketadigan insonning oqshom uyga qaytib kelganida ko'zlarida qalqib turadigan horg'inlik isbot o'rniga o'tsa kerak.

Bu hali hammasi emas, otam gohida bir necha kunlab navbatchilikda qolib ketadilar. Esimda, o'tgan yili hatto Yangi yil bayrami arafasida ham uyga kelolmagandilar. Shubhasiz, harbiylik sharaflil bo'lishi mumkin, ammo oilaning

issiq bag'ridan uzoqda bo'lish har lahzada inson ko'ksini qurigan tikanakdek tirnab turadi. Men ham kichkinaligimda harbiy bo'lishni orzu qilganman, akalarimni-ku aytmasa ham bo'ladi. Lekin otam hech birimizning bu kasbni tanlashimizga yo'l qo'ymadilar (chunki uning mashaqqatini juda yaxshi bilardilar).

Otam shunchalik band bo'lishlariga qaramasdan, oilamizdagi eng kichik narsalarga ham alohida e'tibor beradilar. Har birimizning o'qishimiz haqida so'rab, natijalarimiz bilan qiziqishni kanda qilmaydilar. Hatto yangi she'r yozganimni eshitib qolsalar ham, darrov uni menga o'qitadilar. Doim menga qarab: "Qizim, adabiyot olamida nima gaplar?" deganlarida o'zim tanlagan sohaning menga yuklaydigan mas'uliyatini yana bir karra his qilaman. Ba'zida otamning shu so'zlarini eshitish uchun ham ijod qilishga bo'lgan ishtiyoqim oshib ketadi. Otam men uchun mehr, energiya manbai bo'lsalar, Vatan uchun sodiq o'g'lonlar. Harbiy libosning mas'uliyatini bizga ham yoshlikdan uqtirib kelganlar. Otamning va u kishi sadoqat bilan xizmat qilayotgan Vatanning ishonchini oqlash mening burchimdir!

Yuqorida yozganlarim adabiyotning qaysi janriga to'g'ri kelishini bilmayman-u, ammo bularning bari ona Vatan uchun sidqidildan xizmat qilib, yonib-kuygan insonlardan biri – otamning hayotidan bir parcha deb ayta olaman. Endi esa so'zlarimni ular menga har doim aytadigan gaplari bilan yakunlamoqchiman: "Qizim, hech qachon olg'a qadam tashlashdan qo'rqma! Seni qo'llash uchun ortingda Vataning va oilang bor!"

Shahlo SAFAROVA,
Erkin Vohidov nomidagi
ijod maktabi 11-sinf o'quvchisi

Naqadar go'zal manzara!

SHAXDAM

QADAMLAR JOZIBASI



"Ofarin!", "Biz sizlar bilan faxrlanamiz!", "Bular haqiqiy yurt qalqonlari!", "Tinchligimiz posbonlarisiz!", "Bayramlaringiz bilan", "Naqadar go'zal manzara!"... Turli tillarda hurmat va ehtirom ila aytilgan bu olqishlar O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab o'tkazilgan parad ishtirokchilariga yuzlab, minglab marotaba izhor etildi.

Poytaxtimiz ko'chalarida hamyurtlarimiz Vatan himoyachilarining shaxdam qadamlar bilan ijro etilgan jangovar qo'shiqlariga guvoh bo'lar ekan, namoyishkorona piyoda yurish sababli avtoqatnov tizimida noqulaylik, tirbandlik hech kimning asabiga tegmadi. Aksincha, to'xtab turgan avtobuslar, avtomashinalardagi

yo'lovchilar ezg'ilab yog'ayotgan yomg'irga ham parvo qilmasdan, shaxdam qadamlar bilan Amir Temur xiyoboni tomon harakatlanayotgan harbiy xizmatchilarni suratga olar, tinmay olqishlardir.

Xiyobondagi sohibqiron haykali yonida faxriy qorovul jamoasi va qo'ljangi ustalarining ko'rgazmali

chiqishlari, bo'linmalarning jangovar chaqirig'i, harbiy orkestrning defile namoyishlari jarayonida ham hamyurtlarimiz hamda poytaxt mehmonlari bayram tantanasining ishtirokchilariga aylandi.

Dadil qadamlar jozibasi poytaxt ko'chalarining chiroyiga yanada chiroy qo'shdi.

A. RO'ZIBOYEV

Vatan deb yashaylik, Vatan deb!

MILLIY ARMIYAM

Temur, Jaloliddin, To'maris misol
Xalqimning sheryurak farzandlari jam.
Qudrating beqiyos, tan olgan olam,
Tinchlik uchun bunyod – Milliy armiyam!

Sen eng tinchliksevar, qudratli, tezkor!
Buyuk ajdodlarning ruhi madadkor!
El-yurtim ishonchi, dilda iftixor –
Jonajon armiyam – Milliy armiyam!

Istiqlol baxsh etgan ne'mat bebaho,
Barchasi Yaratgan bergan nasibam.
Oliy Bosh Qo'mondon – oqil rahnamo,
Sadoqatda sobit – Milliy armiyam!

Garovi osuda, baxtli har onning,
She'rlarda, qo'shiqda shonli madhiyam.
Qutlug' zamin – Yangi O'zbekistonning
Yov o'tmas qalqoni – Milliy armiyam!

Botir SOBIROV

OBOD YURT POSBONLARI

Har biri Alpomishday,
G'ayratli, botir, chaqqon!
Yurtni qo'riqlashga shay –
Qirg'iyday ziyrak har on!

Hur Vatan o'g'lonlari –
Obod yurt posbonlari!

Gullab-yashnar hur o'lkam –
Suluv kelin misoli!
Irodangiz mustahkam –
Po'lat, metin misoli!

Hur Vatan o'g'lonlari –
Obod yurt posbonlari!

Sizlar – jasur, mard, zukko,
Epchil, abjir, pahlavon!
Yurt erki-chun doimo –
Bizning ishonchli qalqon!

Hur Vatan o'g'lonlari –
Obod yurt posbonlari!

Sizlar bor hur Vatanda,
Xushvaqt o'tar vaqtimiz!
Shu gullagan chamanda
Doim kulsin baxtimiz!

Hur Vatan o'g'lonlari –
Obod yurt posbonlari!

Hur Vatan erki uchun
Sizlar ishonchli qalqon!
Xalqimiz baxti uchun
Bo'ling har doim omon!

Hur Vatan o'g'lonlari –
Obod yurt posbonlari!

Eshniyoz BURHONOV

VATAN DEB YASHAYLIK!

Yurt uchun tug'ilgan o'g'lonman,
Mardman, jasurman, qo'rg'onman!
Onamsan, otamsan, borliqsan –
Vatan deb bong urgan mardonman.
Bulbul ham yashaydi chaman deb,
Vatan deb yashaylik, Vatan deb!

Chegarang qo'riqlab turgayman,
Nomingni ardoqlab yurgayman.
Nobakor kimsalar yov boqsa,
Otgayman, urgayman, quvgayman!
Bulbul ham yashaydi chaman deb,
Vatan deb yashaylik, Vatan deb!

Qo'limda, ko'ksimda qurolim,
Ko'klarga qilgayman parvozim.
Yurt uchun, xalq uchun qalqonman,
Tog'larda o'tgaydir, qish-yozim.
Bulbul ham yashaydi chaman deb,
Vatan deb yashaylik, Vatan deb!

Muqaddas zaminsan, ey onam,
Asrayman, bo'lmagin parvona.
Vatanni sevgayman, sodiqman,
Bu Vatan men uchun yagona.
Bulbul ham yashaydi chaman deb,
Vatan deb yashaylik, Vatan deb!

Yigitlik burchimdir, shonimdir,
Xizmat bu eng totli onimdir.
Dushmanga boshimni egmayman,
Vatan bu g'ururim, orimdir.
Bulbul ham yashaydi chaman deb,
Vatan deb yashaylik, Vatan deb!

Sarhadni asraydi posbonlar,
O'ktamlar, jasurlar o'g'lonlar.
Siz buyuk yurtimning farzandi,
Mardonlar, harbiylar, qo'rg'onlar.
Bulbul ham yashaydi chaman deb,
Vatan deb yashaylik, Vatan deb!

Abduvohid SUVONOV

VATANIMIZ POSBONLARI

Rustam doston shijoati yuragida,
Alpomishning quvvati bor bilagida,
Chaqaloqlar tinch uxlaydi yo'rgagida,
Osoyishta qaldirg'ochli ayvonlari,
Qilar xizmat Vatanimiz posbonlari!

Yurt tinch esa, shodon bo'lar kelinchagi,
El tinch ekan, tebranadi belanchagi,
Sizlar xalqning chin g'amxo'ri, kuyunchagi,
Xavf-xatardan asraguvchi qalqonlari,
Chekib zahmat Vatanimiz posbonlari!

To'ylarida kuylab baxshi dostonlari,
Siz sababli yangrar omon-omonlari,
Siz bor el tinch, musaffodir osmonlari,
Yurtimizning eng fidoyi insonlari,
Deymiz: "Rahmat, Vatanimiz posbonlari!"

Qoyil qolib ba'zan so'zi sehringizdan,
Oftob isi kellar qaynoq mehringizdan,
Yov chekingay shijoat-u qahringizdan,
Sinaladi jangda mardi maydonlari,
Qilsa shiddat Vatanimiz posbonlari!

Goh yurasiz dala-dashtda, yaylovlarda,
O'tkazasiz kuningizni sinovlarda,
Safda turib, bo'ling deymiz siylovlarda,
Ko'ksingizni bezab ko'krak nishonlari,
Sizga hurmat, Vatanimiz posbonlari!

Burchingizni ado etib, yuzi yorug',
Bo'ling deymiz, martabangiz doim ulug',
Sharaflari bu bayramingiz bo'lsin qutlug',
Er yigitlar yo'lin tutgan jononlari,
Sizda iffat, Vatanimiz posbonlari!

Orzu qilgan edi Fitrat, Cho'lponlari,
Bo'lishdi lek qatag'onning qurbonlari,
Bugun ro'yob Qodiriyning armonlari,
Dasturulamal Yurtboshimiz farmonlari,
Qiling g'ayrat, Vatanimiz posbonlari!

Saida SAFO,
Ogahiy nomidagi
ijod maktabi o'qituvchisi

VATAN BAYROG'I

Yovlar erklik deya yonsa hasadda,
Bir millat birlashsa buyuk maqsadda,
Mardlikni belingga bog'la-da shartta
Qo'lingga tut, o'g'lim, Vatan bayrog'in!

Onalar qalbida bo'lmasin hasrat,
Yovlarga egilmas qaddingni ko'rsat,
Bugun yakdillikka keldi deb fursat,
Qo'lingga tut, o'g'lim, Vatan bayrog'in!

Bu tuproq necha ming mardlarni tug'di,
Manguberdi bo'ldi xalqin yutug'i,
Yurtin Vatan qildi Temurning tug'i,
Qo'lingga tut, o'g'lim, Vatan bayrog'in!

Halovat tinchlikning ukasi go'yo,
Urush pok dillarda topsin intiho,
Kubrodek qo'lingda hilpirasin to,
Qo'lingga tut, o'g'lim, Vatan bayrog'in!

Ko'ngli so'qirlarning bitsin janglari,
Yuvilsin go'daklar qirmiz zanglari,
Dilingga shukrning yetsin ranglari,
Qo'lingga tut, o'g'lim, Vatan bayrog'in!

Guliruxsor UMMATOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

ADABIYOTSHUNOS UMRI

manzaralari

Vatan taqdiri, milliy tafakkur va so'z mas'uliyati tom ma'nodagi olim ilmiy faoliyatining g'oyaviy poydevorini tashkil etadi. Shu ma'noda zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotida filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning munosib va salmoqli o'rni bor. Adabiyot ilmining matnshunoslik, mumtoz adabiyot, jadidshunoslik hamda adabiy jarayon yo'nalishlarida birday samarali ilmiy tadqiqotlar olib borishi olim faoliyatining naqadar serqirra ekanini ko'rsatadi. Tan olib aytish kerakki, bu hozirgi adabiyotshunosligimizda kam uchraydigan hodisadir.

Nurboy Jabborov adabiyotshunoslikning qaysi sohasida izlanish olib bormasin, uning tadqiqotlarida teran va chuqur tahlil, yangicha ilmiy talqin ustuvor. Ustoz adabiy matnning ichki mantig'ini nozik his etadi. Shu bois uning ilmiy ishlarida so'zga mas'uliyat va ilmiy talabchanlik yaqqol seziladi.

Olimning navoiyshunoslik, furqatshunoslik, ogahiyshunoslik bo'yicha tadqiqotlari esa uning mumtoz adabiyot sohasidagi keng bilim va yuksak tafakkur egasi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Nurboy Jabborovning ilmiy faoliyatini kuzatar ekanmiz, uning tadqiqotlarida an'ana va yangilik uyg'unligi alohida ko'zga tashlanadi. U mumtoz adabiyotni faqat tarixiy-manbaviy jihatdan emas, balki zamonaviy adabiy tafakkur nuqtayi nazaridan tahlil qilishga intiladi. Shu jihatdan uning ilmiy merosida klassik matnlarga yangi ko'z bilan qarash, ularni bugungi adabiy jarayon bilan bog'lashga qaratilgan izlanishlar ustuvor o'rin tutadi.

Olimning navoiyshunoslik sohasidagi tadqiqotlari Alisher Navoiy merosini matn, ma'no va poetik tafakkur birligida o'rganishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. U Navoiy asarlariga murojaat etar ekan, an'anaviy sharh va ta'riflar bilan cheklanib qolmaydi, balki shoir badiiy dunyosidagi falsafiy qatlam, ma'naviy mezonlar va inson konsepsiyasini chuqur tahlil qiladi. Birgina o'ttiz jildlik "Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi"ning 20-jildidan o'rin olgan olim qalamiga mansub "Maoniy ahlining sohibqironi" monografiyasi bilan tanishar ekanmiz, yuqoridagi fikrlarimiz yana bir bor o'z tasdig'ini topadi.

Furqat va Ogahiy ijodiga bag'ishlangan ishlarida ham olim tarixiy davr, ijtimoiy muhit va ijodkor shaxsiyati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ilmiy asosda ochib beradi.

Nurboy Jabborovning jadidshunoslik sohasidagi tadqiqotlari esa o'zbek adabiyotida yangilanish jarayonlarini anglashda muhim manba vazifasini o'taydi. U jadid adabiyotini faqat mafkuraviy yoki ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki badiiy tafakkur taraqqiyotining uzviy bosqichi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv olimning adabiy jarayonga yaxlit va tizimli qarashga intilishini ko'rsatadi.

Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid kabi zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik namoyandalari ijodiga bag'ishlangan teran tahlillari orqali Nurboy Jabborov bugungi adabiy jarayonning ichki qonuniyatlarini, poetik tafakkur yo'nalishlarini chuqur ochib beradi. Olim mazkur shoirlar ijodida milliy ruh, zamon dardi va shaxsiy kechinmalar qanday badiiy shakl topganini tahlil qilish orqali zamonaviy o'zbek she'riyatining ma'naviy-estetik qiyofasini keng va mukammal talqin etadi. Ustozning poetik matnga yondashuvida so'z va ma'no, shakl va mazmun uyg'unligi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois uning Abdulla Oripov she'riyatiga

oid tadqiqotlarida fuqarolik pafosi, Vatan tuyg'usi va insoniy mas'uliyat muammolari poetik tahlil orqali yuksak ilmiy darajada yoritiladi. Sirojiddin Sayyid ijodi tahlilida esa zamonaviy she'riyatga xos ramziy fikrlash, falsafiy mushohada va lirik qahramon ruhiyatini ochishga qaratilgan nozik ilmiy kuzatishlar ustuvorlik qiladi. Bu tadqiqotlar nafaqat muayyan ijodkorlar poetik olamini anglashga, balki umuman olganda, zamonaviy o'zbek she'riyatining taraqqiyot yo'nalishlari, estetik mezonlarini belgilashga xizmat qiladi.

Ayni paytda Nurboy Jabborov nafaqat tadqiqotchi olim, balki ilmiy maktab yaratgan ustoz sifatida ham e'tirof etiladi. Uning rahbarligida tayyorlangan ilmiy ishlar, yosh tadqiqotchilarga bergan maslahat va yo'l-yo'riqlari bugungi adabiyotshunoslik taraqqiyotiga xizmat qilayotgani shubhasiz. Ustozning shogirdlar bilan muloqotidagi samimiylilik, ilmiy talabchanlik va adolat tamoyillari uning shaxsiy fazilatlarini yanada yorqin namoyon etadi. Xususan, men uchun Nurboy Jabborov

nafaqat zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining teran tadqiqotchi olimi, balki magistrlik tadqiqotim davrida ilmiy rahbar sifatida yuksak mas'uliyat va haqiqiy ustozlik namunasini ko'rsatgan murabbiydir. Ilmiy ish jarayonida ustozning menga nisbatan talabchan munosabati, fikrni aniq va asosli bayon etishga o'rgatgan yondashuvi tadqiqotchi sifatida shakllanishimda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Shu bois ustozdan doim minnatdorman.

Yubiley munosabati bilan Nurboy Jabborovning ilmiy va ma'naviy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, uning o'zbek adabiyotshunosligida tutgan o'rni faqat yaratgan asarlari bilan emas, balki shakllantirgan ilmiy muhiti, tarbiyalagan shogirdlari va qoldirgan ilmiy an'analari bilan ham o'lchanishini anglaymiz. Bunday olimlar hayoti va ijodi adabiyot ilmi uchun hamisha ibrat maktabi bo'lib qoladi.

Obidjon SHOFIYEV,
Termiz davlat universiteti
birinchi prorektori,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurboy Jabborov



Askar ota-onalarini sharaflaymiz

KO‘ZLARDA SEVINCH va sog‘inch hissi



Bugungi kunda milliy armiyamizning qiyofasi tubdan o'zgardi. Harbiy xizmatchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilib, ularning jismoniy hamda ma'naviy qiyofasi yuksalib borayotgani fikrimizning dalilidir. Shu jumladan, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida muddatli harbiy xizmatchilar bilan o'tkaziladigan jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik tizimi ham isloh qilinib, mashg'ulotlarni o'tkazishda yangi shakl va uslublar qo'llanilib kelinmoqda. Bir so'z bilan aytganda bugungi armiya kechagi armiya emas!



O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan ijodiy salohiyatga, intellektual qobiliyatga, axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan muddatli harbiy xizmatchilarning ota-onalarini ulug'lash, ularning oilalarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy hordiq tadbirlarini tashkillashtirish maqsadida "Askar ota-onalarini sharaflaymiz!" ma'naviy-ma'rifiy anjumani o'tkazildi.

Anjumanda Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari, harbiy qism komandirlari, muddatli harbiy xizmatchilar va ularning ota-onalari, chaqiruv yoshidagi o'quvchi-yoshlar, faxriylar, mudofaa ishlari boshqarmalari va jamoat tashkilotlari hamda ularning hududiy bo'limlarining vakillari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida ota-onalar harbiy orkestr musiqa sadolari ostida tantanali ravishda kutib olindi. Tashrif buyurgan mehmonlar muddatli harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, to'garaklar, Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilgan islohotlar bilan yaqindan tanishtirildi.

Shundan so'ng ota-onalar O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti anjumanlar zaliga taklif etildi. Bosh ekranda muddatli harbiy xizmatchilarning milliy armiyamiz to'g'risidagi fikrlari hamda ota-onalariga yo'llagan salomlari tasvirlangan videoroliklar namoyish etildi. Shu bilan birga, qobiliyatli askarlar tomonidan she'r va qo'shiqlar ham tinglandi. Mudofaa vazirligi Markaziy ashula va raqs ansamblining xonandalari tomonidan ijro etilgan

kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga bayram kayfiyatini ulashdi. Farzandlari bilan yuzma-yuz muloqot qilgan ota-onalar o'g'lonlarining xizmat davomida jismonan chiniquqani, ma'naviy jihatdan yetuklashgani, nigohlarida mas'uliyat va vazminlik mujassam bo'lganini ko'rib, qalblarida faxr-iftixor tuyg'ulari uyg'onganini yashirmadi.

Yakunda askarlarga mudofaa vazirining qimmatbaho esdalik sovg'asi va ularning ota-onalariga tashakkurnomalar topshirildi. Tadbirda ishtirok etgan muddatli harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, Toshkent shahri va Toshkent viloyati hokimligi tomonidan bayram tuhfalari tantanali tarzda topshirildi.

Uch avlod uchrashuvi

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamenti anjumanlar zalida sana munosabati bilan "Vatan tuyg'usi barcha narsadan qadrlil!" shiori ostida uch avlod uchrashuvi o'tkazildi.



VATAN TUYG'USI BARCHA NARSADAN QADRILI!

Unda Olmazor tumanida istiqomat qiluvchi oqsoqollar, faol nuroniylar hamda "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" loyihasi bo'yicha birlashtirilgan uyushmagan yoshlar, san'atkor va ommaviy axborot vositasi vakillari ishtirok etdi.

Tadbir davomida so'z olganlar bugungi yosh avlod yuksak ma'naviyatli, jasoratli va fidoyi ajdodlarga ega ekanini ta'kidlab, ularning hayot yo'li va boy merosini o'rganish yoshlarni bilim va komillik sari yetaklashini alohida qayd etdi. Shu bilan birga, tadbir mehmoni sifatida taklif qilingan faxriylar o'zlarining harbiy xizmat davrida boshdan kechirgan sinovlari, Vatan oldidagi burchni ado etish xotiralarini yosh avlod vakillari bilan o'rtoqlashdi. Mustaqillikdan so'ng milliy armiyamizning yaratilishi, uning rivojida turli xil qiyinchiliklar,

zamonaviy armiyamizning kelajagi haqidagi fikr-mulohazalar ishtirokchilar tomonidan diqqat bilan tinglandi. Shundan so'ng Vatan himoyachisi bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yoshlar faxriylarga savollar bilan murojaat qilib, ochiq va samimiy muloqot tashkil etildi.

Aytib o'tish joizki, Toshkent shahri "Nuroniylar" jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan mazkur tadbir keksa va yosh avlod vakillari o'rtasidagi rishtalarni kuchaytirish, ularning hayotiy tajribasi, bilimi va malakasini yoshlarga yetkazish, ularda jonajon Vatanimizga muhabbat va sadoqat ila xizmat qilish hislarini uyg'otishi bilan ahamiyatli bo'ldi. Yakunda Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining dasturlari tomoshabinlarga namoyish etildi.

Islahot

ZAMONAVIY AVTODROM FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

“Vatanparvar” tashkiloti Andijon viloyati kengashi tasarrufidagi Marhamat tumani o‘quv sport-texnika markazining zamonaviy talablarga mos ravishda bunyod etilgan o‘quv avtodromi foydalanishga topshirildi.

Tantanali ochilish marosimida “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati, tuman hokimligi va IIB YHXB mutasaddilari, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

“Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov o‘z nutqida ikki yil muqaddam Bo‘ston tumanida belgilangan standartlarga muvofiq, tashkilot avtodromi foydalanishga topshirilgani, Marhamat tumanida ochilgan ayni avtodrom viloyatda ikkinchisi ekani va kelgusida qolgan hududlarda ham bunday inshootlar barpo etilishini ta’kidladi. “Bu sa’y-harakatlarimiz, o‘z navbatida, haydovchilik kasbini egallamoqchi bo‘lgan andijonliklar uchun barcha qulayliklarni yaratadi”, dedi u jumladan.

Shuningdek, so‘zga chiqqan tuman hokimi o‘rinbosari Abdurahim Mahamatov va “Nuroni” jamg‘armasi tuman bo‘limi boshlig‘i Muhammadzokir Ergashev yig‘ilganlarni ushbu voqelik bilan tabriklab, tashkilot va o‘rganuvchilar ishlarida muvaffaqiyat tiladi.

Nuroni otaxonlar o‘quv avtodromini qurib bitkazilishini ta’minlagan “Vatanparvar” tashkiloti mutasaddilari haqqiga duo qildi.



Tashkilotning viloyat kengashi tasarrufidagi o‘quv muassasalariga 12 ta “Chevrolet Onix” yengil va 3 ta “Foton” yuk avtomobillarining topshirilishi tadbirga yanada ko‘tarinki ruh bag‘ishladi. Endilikda ushbu o‘quv avtomobillardan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida “B”, “BC” va “C” toifalari bo‘yicha o‘qiyotgan fuqarolar amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadi.



Tadbir davomida tashkilot tizimida “Avtokross”, “Motokross”, “Karting”, “Duatlon”, “Pnevmatik quroldan o‘q otish”, “Aviamodel”, “Raketamodel”, “Kemamodel” bo‘yicha tashkil etilgan sport seksiyalarining ko‘rgazmalari yoshlarda katta taassurot qoldirdi.



Musobaqa

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Vatanparvar” tashkiloti Namangan viloyati kengashi tasarrufidagi Uchqo‘rg‘on tumani o‘quv sport-texnika markazida “Men g‘olib!” shiori ostida sport musobaqasi tashkil etildi.

“MEN G‘OLIB!”: YOSHLAR KUCH SINASHDI



DXX Chegara qo‘shinlari harbiy qismi va tuman mudofaa ishlari bo‘limi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan ko‘pkurash musobaqasida umumta’lim maktablarining o‘quvchilaridan tashkil topgan “Yosh chegarachilar”, “Lochinlar” va “Vatan tayanchi” jamoalari o‘zaro bellashdi.

Musobaqa 400 metrda yugurish, turnikda tortilish, granata uloqtirish, arqon tortish va pnevmatik quroldan o‘q

otish kabi shartlarni o‘z ichiga oldi.

Do‘stona ruhda, shu bilan birga murosasiz kechgan bellashuv natijasida “Lochinlar” jamoasining qo‘li baland keldi. Ikkinchi o‘rin “Yosh chegarachilar” va 3-o‘rin “Vatan tayanchi” jamoalariga nasib etdi.

G‘oliblar diplom va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Tadbir yakunida tashkilotchilar tomonidan davra suhbat uyushtirilib, yoshlarga Vatanga xizmat qilish va uni himoya qilish har bir insonning oliy burchi ekani tushuntirilib, bugungi kunda mamlakatimizda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida ma’lumot berildi.



Tanlov

VATANGA MUHABBAT bolalar ijodida aks etdi



O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Vatanparvar” tashkiloti Buxoro shahri o‘quv sport-texnika markazida “Eng yaxshi tasviriy san’at asari” va “She’rxonlik” tanlovlari tashkil etildi.

“Mening armiyam – mening faxrim!” shiori ostida o‘tkazilgan ushbu bellashuvlarda tashkilotning viloyatdagi o‘quv muassasalari xodimlarining farzandlari milliy armiyamiz hayoti aks etgan suratlarni

chizdilar va buyuk adiblarning Vatanni madh etuvchi she’rlaridan namunalar aytib berdi.

Har bir bolaning tadbirdagi ishtiroki “Vatanparvar” tashkiloti viloyat kengashi rahbariyati va Qurolli Kuchlar faxriylari tomonidan alohida baholab borilib, esdalik sovg‘alar bilan rag‘batlantirildi.

Shuningdek, yosh ishtirokchilarda harbiy xizmatga hurmat tuyg‘ularini va milliy armiyamiz bilan faxrlanish hissini yanada kuchaytirish maqsadida, ular bilan o‘ziga xos kichik davra suhbat tashkil etildi. Suhbat qizg‘in savol-javoblar bilan o‘tdi.

Tadbirdan so‘ng tashkilotning “Motokross”, “Karting”, “Duatlon”, “Pnevmatik quroldan o‘q otish”, “Aviamodel”, “Raketamodel” kabi sportning texnik va amaliy turlari bo‘yicha tashkil etilgan seksiyalar ko‘rgazmalarining namoyishi bolalarda unutilmas taassurot qoldirdi.



REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA



Akbar ALLAMURODOV



Fotoko'rgazma

O'ZBEKISTON ARMIYASI:

kecha va bugun

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Toshkent fotosuratlar uyida "O'zbekiston armiyasi: kecha va bugun" mavzusida fotoko'rgazma ochildi.



Sherzod SHARIPOV



O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Badiiy akademiya, Jurnalistlar uyushmasi hamda Toshkent fotosuratlar uyi hamkorligida tashkil etilgan mazkur ko'rgazma milliy armiya tarixini fotojurnalistika vositasida aks ettirgan muhim ma'naviy-ma'rifiy tadbir sifatida e'tiborga molik bo'ldi.

Fotoko'rgazmaning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Olimjon O'sarov, "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar bosh

muhriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Salim Doniyorov hamda boshqalar so'zga chiqib, mazkur ko'rgazma o'zbek jurnalistikasida harbiy fotojurnalistika alohida e'tiborga loyiq, mustaqil yo'nalish sifatida shakllanayotganini yaqqol namoyon etayotganini ta'kidladi. Qayd etilganidek, harbiy fotojurnalistika nafaqat yuksak ijodiy mahorati, balki yuqori darajadagi jismoniy va ruhiy tayyorgarlikni ham talab etadi. Chunki harbiy fotomuxbirlar mashq maydonlarida, safarbarlik tadbirlari hamda jangovar tayyorgarlik jarayonlarida harbiy xizmatchilar bilan bir xil sharoitda faoliyat yuritadi.

Aynan shu jihat harbiy fotojurnalistlarning jamiyat oldidagi mas'uliyatini yanada oshiradi. Ularning ijodiy ishlari harbiy xizmatning ichki falsafasini, armiyada amalga oshirilayotgan islohotlarning inson hayotiga ta'sirini, armiya bilan jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berishda muhim o'rin tutadi.

Ko'rgazma doirasida o'tkazilgan fotosuratlar ko'rik-tanloviga 30 ga yaqin professional va havaskor fotograf tomonidan taqdim etilgan 500 dan ortiq fotoasar namoyish etildi. Ularda armiya faqat jangovar kuch sifatida emas, balki inson taqdiri, oila, mas'uliyat va fidoyilik bilan bog'liq murakkab tizim sifatida aks ettirilgan. "Harbiy xizmatchining oilasi" nominatsiyasi orqali harbiy xizmatchi ortida turgan sabr-toqatli, matonatli oila timsoli yoritilgan bo'lsa, "Harbiy xizmatchining shijoati" nominatsiyasida jasorat va burchga sadoqatning haqiqiy qiyofasi ochib berildi.

Ekspozitsiya orqali Qurolli Kuchlarimizning kechagi kuni, bugungi qudrati, shuningdek harbiy xizmatchining real, insonparvar qiyofasi keng jamoatchilikka namoyon etildi.

F. ERGASHEV



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov

Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: 2
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 34 350 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Muruvvatli-dil press" MChJ mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"Muruvvatli-dil press" MChJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani "Nafosat" MFY Qatortol ko'chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya